

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHIMBETOVA GULZADA DAVLETOVNA**

**INGLIZ TILINING JUMLA TARKIBIDAGI YAKUNIYLIK  
KATEGORIYASI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Eshimbetova Gulzada Davletovna**

Ingliz tilining jumla tarkibidagi yakuniylik kategoriyasi va uning pragmatik xususiyatlari..... 3

**Ешимбетова Гульзада Давлетовна**

Категория финальности и ее прагматические особенности в структуре предложения английского языка..... 25

**Eshimbetova Gulzada Davletovna**

The category of finality and its pragmatic features in the sentence structure of the English language..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHIMBETOVA GULZADA DAVLETOVNA**

**INGLIZ TILINING JUMLA TARKIBIDAGI YAKUNIYLIK  
KATEGORIYASI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2.PhD/Fil2608 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.karsu.uz](http://www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Usmonov O'rol Usmonovich**

filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Asadov Rustam Muminovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "21" may soat 9:00 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axbopot-resurs markazida tanishish mumkin (516 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "30" aprel kuni tarqatildi.  
(2026 yil "30" aprel dagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.S. Qudaybergenov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.E. Seytjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotiibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

**G.A. Kurbaniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida pragmatic yo'naltirilgan tadqiqotlar til tildan tashqaridagi vaziyatlarda so'zlovchi ongidagi tushunchalarni ifodalashini aniqladi. Har bir tilda muayyan bir tushuncha turli usullar va vositalar orqali ifodalanadi. Kategorial belgilarni izohlashda ontologik tamoyillar real nutqiy faoliyat jarayonida semantik kategoriyalar mavjudligini lingvistik nazariyalar asosida ochib beradi. Inson faoliyatining har birida muayyan maqsad mavjud bo'ladi, uni amalga oshirish bosqichlari jarayoni o'rganiladi. Final kategoriya tilshunoslikda bir qator tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Bizning tadqiqotimizda ulardan farqli ravishda maqsadni ifodalovchi unsurlar sintaksem tahlil qilinib, ularning pragmatik xususiyati ochib beriladi.

Dunyo tilshunosligida final kategoriyaning voqelanish yo'larini o'rganish yetarli emas. Maxsus tadqiqotlarda faqat maqsadni ifodalashning individual vositalari, xususan, intensionallik doirasida psixologik nuqtayi nazardan qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Umuman, amalga oshirilgan izlanishlarda final kategoriya asosan niyat kategoriyasi bilan bog'lab tadqiq etilgan. Maqsad kategoriyasi nafaqat tilshunoslikning, balki falsafa, psixologiya kabi bir qator ijtimoiy fanlarning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Shunday ekan mazkur kategoriyani semantik-pragmatik jihatdan o'rganish zarurati mavjudligi ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda chet tillarni o'rganishga, chet tillar tizimi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, til qurilishi, tilning nutqda faollashuvi, tilning sintaktik, semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari yangicha yondashuvlar asosida keng ko'lamli tadqiq etilmoqda. Xususan, til birliklarining sintaktik sathda voqelanishini sintaksem tahlil usuli vositasida bayon etish, sintaktik munosabatlarni sintaktik valentlik asosida aniqlash, sintaktik kategoriyalarning kategorial va nokategorial belgilarini ochib berish masalalarida samarali ishlar amalga oshirilgan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda ta'kidlanganidek, "tillarni qiyosiy o'rganish bo'yicha fundamental tadqiqotlar sohasida yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni kengaytirish, uni modernizatsiya qilish va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish"<sup>1</sup> ustuvor vazifalar sifatida belgilangan fundamental tadqiqotlarni zamon talablariga mos ravishda yangi yo'nalishlar bilan boyitish va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish ham zamonaviy tilshunoslikni innovatsion tamoyillar va mezonlar bilan boyitishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 18 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash boyicha qo'shimcha chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

to'g'risida", 2020 yil 11 noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida final kategoriya tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu borada Yevropa olimlari maqsadni falsafiy va pragmatik yondashuv asosida tadqiq etgan: J.L.Austin, M.Dumment, G.Frege, J.R.Searle, D.Vanderveken, F.G.Droste<sup>2</sup> asarlari va ko'plab darsliklarda<sup>3</sup> fikrlar bayon etilgan. Rus tilshunoslaridan A.V.Bondarko, E.Gusserl, I.P.Susov, A.A.Leontev, P.F.Strosson, N.N.Kazydub, I.B.Levontina, Son Men Gon, L.I.Smurova<sup>4</sup>larning asarlarida tadqiq etilayotgan kategoriyaning pragmatic, funksional-semantik xususiyatlari ifodalangan.

O'zbekistonlik bir qator tilshunoslar tomonidan sintaktik-semantik kategoriyalar, funksional sintaksis va lingvistik pragmatika yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, U.Usmonov, R.Asadov, Sh.Safarov, G'.Mirsanov, N.Nasrullayeva<sup>5</sup>larning ilmiy izlanish natijalaridan unumli foydalanilgan.

---

<sup>2</sup> Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 168 p.; Dummett M. Frege: Philosophy of Language. – Cambridge: Harvard University Press, 1981. – 708 p; Searle J.R. 1968. Austin on Locutionary and Illocutionary Acts // Philosophical Review. – Vol. 77. – No. 4. – P. 405-424; Searle, J.R. et Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 431 p.; Katz J.J. Propositional Structure and Illocutionary Force: A Study of the Contribution of Sentence Meaning to Speech Acts. – Hassocks, Sussex: Harvester, 1977. – 249 p.; Droste F.G. Intention, Meaning, Interpretation // Lingua. – Amsterdam. – 1968. – Vol. 21. – P. 126-134.

<sup>3</sup> Intentionality. – Cambridge: Cambridge University Press. 1983. – 278 p.

<sup>4</sup> Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. – Л.: 1971. - 112 с.; Гуссерль Э. Логические исследования. Часть 1. – СПб., 1909. – С. 29-32.; Сусов И.П. Семантическая структура предложения. -Тула: Гос.пед. институт, 1973. - 142с.; Леонтьев А.А. Деятельность, сознание, личность. – М.: Изд-во полит. лит. 1975. – 303 с.; Строссон П.Ф. Намерение и конвенция в речевых актах. – М., 1986. – Вып.17: Теория речевых актов. – С. 131-150.; Казыдуб Н.Н. Системно-функциональное исследование интенциональных глаголов (на материале современного английского языка): Автореф. дисс. ... канд. Филол. наук. Санкт Петербург, 1991. – 17 с.; Левонтина И.Б. Целевые слова и наивная телеология: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995. – 224 с.; Сон Мен Гон. Выражение смысла «цель» средвами синтаксиса / Русский язык в школе. – 1998. - №2. – С. 89-95.; Смурова Л.И. Вариантность финальных целевых синтаксем: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Санкт Петербург, 1995. - 21 с.

<sup>5</sup> Usmanov U.U. Actual problems of English Theoretical Grammar, Samarkand, 2015, Asadov P.M. Инглиз тили содда гап курилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем тахлили /фил.фан бўйича фал.док. (PhD). дисс. автореф. – Тошкент: 2018. – 27 б., Сафаров Ш.С. Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц.– Ташкент: ТГПИ, 1983. – 98 с.; Mirsanov G. K. Exploration of Aspectual Semantics Within Motion Verbs. Cognitive Approach // Язык и культура. – 2018. – С. 15-20; Nasrullayeva N. Z., Davronovna R. S. Comparative Analysis of the English and Uzbek Proverbs About Human's Intellect //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – Т. 9. – С. 77-80.

G.A.Serebryakova *N + is going + infinitiv* konstruktsiyasining semantik-sintaktik xususiyatlarini o'rganishda maqsadning ifodalanishiga to'xtalib o'tadi<sup>6</sup>. R.B.Brandon maqsad ma'nosini intensionallik termini qamrovida pragmatik va inferensial yondashuv asosida tadqiq etib, ong va til o'rtasidagi bog'liqliklar, falsafiy atamalar hamda mulohazalarga e'tibor qaratgan<sup>7</sup>. Intensionallikning diskursiv va amaliy xususiyatlari hamda ularning uzatuvchi va qabul qiluvchi o'lchovlari muhokama qilingan.

Tabiiy tillarda maqsad va ma'no munosabatlari o'rganilganda<sup>8</sup>, intensionallik termini qo'llanilgan va u illokutiv nutqiy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida talqin etilgan. Maqolada maqsadni ifodalovchi birliklar ong, til va olam o'rtasidagi aloqa kaliti sifatida e'tirof etilgan.

Maqsadni ifodalashning boshqa vositalari ham qisman maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan. Maqsad holi gap tarkibida holning boshqa turlari qatorida o'rganilgan<sup>9</sup>, L.I.Smurova final sintaksemlarni tadqiq qilgan<sup>10</sup>, biroq olima final sintaksemlarning pragmatik xususiyatlari tahlilini amalga oshirmagan.

Maqsadni ifodalovchi konstruktsiyalarning semantik sintaktik tahlili iqtisodiy matnlar misolida olib borilgan<sup>11</sup>. Unda maqsad semasini ifodalovchi birliklarga nisbatan intensionallik atamasi qo'llanilgan hamda uning maqsad holi vazifasida kelishi, uni voqelantiruvchi leksik birliklar, asosan infinitivli qurilmalar ochib berilgan. Biroq bizningcha, final sintaksema infinitivdan boshqa leksik birliklar bilan ham ifodalanishi, gapda har xil sintaktik o'rinlarda kelishi ham mumkin. Fikrimizni dissertatsiyaing ikkinchi va uchinchi boblarida misollar tahlili asosida dalillaymiz.

Final sintaksemlar qatnashgan gaplarni komponentlar va sintaksemlarga ajratib tahlil qilish A.M.Muxin, L.I.Yurevich, O'.U.Usmonov, Z.J.Muxtorov, R.E.Kiyamov, Sh.S.Ashurov, D.T.Kubeysinova, V.B.Aristova, M.R. Jolibekova, M.S.Qayumova, R.M.Asadov, M.M.Oblokulovalarning ilmiy tadqiqotlariga tayangan holda amalga oshirildi. Bunda final sintaksemlar gapda faollashuvida birkadigan sintaktik aloqalari, ular ifodalaydigan kategorial va nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilar hamda boshqa sintaksemlar bilan birish imkoniyatlari ochib berildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Lisoniy hodisalarning pragmatik va kognitiv-diskursiv tahlili» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

---

<sup>6</sup> Серебрякова Г.А. Грамматический статус и семантика конструкции + инфинитив в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1982. - 22 с.

<sup>7</sup> Brandon R.B. Intentionality and Language: A Normative, Pragmatist, Inferentialist Approach / *The Cambridge Handbook of Linguistic Anthropology*. 2011. – 19 p.

<sup>8</sup> Candida de Sousa Melo. Intentionality and Meaning in Natural languages / *The Journal of Intercultural Studies*. 2014. – P. 75-91. <http://doi.org/10.18956/00005389>

<sup>9</sup> Самойлова Н.Л. Смысловые функции обстоятельства в структуре предложения (на материале современного английского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук - М., 1982. - 21 с.

<sup>10</sup> Смурова Л.И. Вариантность финальных целевых синтаксем: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 1995.-21 с.

<sup>11</sup> Ниссен Ф.Х. Семантико-синтаксический анализ интенциональных конструкций (на материале английских текстов экономической тематики): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук - Самара, 2000. - 26 с.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz tili sodda va qo'shma gaplar tarkibida final sintaksemalar, ularning variantlari hamda pragmatik, sintaktik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz tili gap qurilmasida maqsadni ifodalovchi birliklarning o'rini va sintaktik xususiyatlarini aniqlash;

maqsadni amalga oshirish bosqichlarini voqelantiruvchi fe'llarning leksik-semantik xususiyatlarini hamda ularning pragmatik munosabatlarini tadqiq etish;

ingliz tili gap qurilmasida final sintaksemaning ifodalanishi, distributsiyasi va sintaktik aloqalarini ochib berish;

final sintaksemalar qatnashgan gaplarning sintaksem tahlilini amalga oshirish, final sintaksemalarning pragmatik, funksional-kommunikativ imkoniyatlarini o'rganish;

final sintaksemalarning konnotativ variantlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz tili sodda va qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etgan maqsadni ifodalovchi birliklarning pragmatik va sintaktik-semantik maydoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti** final sintaksemalar qatnashgan gaplarni komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish va ularning pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Gap tarkibida final sintaksemalarni tadqiq qilishda lingvistik kuzatish, gap semantikasi, distributiv tahlil, transformatsion tahlil, komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, yunksion model, pragmatik tahlil va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz tili gap qurilmasida final sintaksemalar tobe va yadro komponentlar o'rinda kelishi, ularning sintaktik xususiyatlari va uning bosqichlarini anglatuvchi fe'llar guruhlarini tasniflanib, leksik-semantik xususiyatlari va pragmatik munosabatlari asoslangan;

ingliz tili gap qurilmasida final sintaksemani faollashtiruvchi leksik, grammatik va sintaktik birliklar aniqlanib, ularning qamrovi komponent modellarda, sintaktik aloqalari yunksion modellarda tasvirlangan;

final sintaksemalar qatnashgan gaplarning sintaksem tahlili natijasida ularning kategorial va nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilari aniqlangan va boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlari ochib berilgan;

final sintaksemalarning konnotativ variantlarini aniqlanib, ularning funksional-kommunikativ va pragmatik xususiyatlari tasniflangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

filologiya fakulteti yuqori kurs talabalari hamda magistrantlari uchun ingliz tilini o'qitish amaliyotidagi nazariy grammatikaning dolzarb muammolari, funksional sintaksis va lingvistik pragmatikaga kirish fanlari bo'yicha maxsus kurslarda gapning ichki va tashqi qurilmalarini, sintaktik birliklar semantikasini o'rganish tizimi ishlab chiqilgan;

ingliz tili sodda va qo'shma gaplar tarkibida monovalentli final sintaksemalarning boshqa birliklar bilan o'zaro munosabati va ular ifodalagan

sintaksema variantlarini ko'rgazmali tarzda o'rganish uchun gaplarning har xil (yunksion, komponent va sintaksem) modellari taqdim etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflanishi, aniq lingvistik metodlar orqali tahlil qilishga asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, aniq badiiy asarlardan misollar yig'ilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o'zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotda maqsad kategoriyasi haqidagi tushuncha kengaytirildi, final sintaksema funktsional-semantik qatlam va kommunikativ-semantik guruhning tarkibiy qismlari sifatida ushbu kategoriyaning turli ifoda vositalarining tuzilishi, semantikasi va funktsiyalari tizimlashtirildi va tasniflandi. Dissertatsiya gapning semantik, sintaktik va kommunikativ qatlamlari orsidagi munosabat masalasini tadqiq etishga muayyan darajada hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lingvistik metodlar asosida sintaksem tahlil qilishda bakalavriat talabalariga "Nazariy va amaliy grammatika", "Matn tahlili", magistrantlarga "Nazariy grammatikaning dolzarb muammolari", "Lingvistik metodlar", "Matn lingvistikasi", "Sintaktik-semantika" kabi fanlardan maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarida hamda mazkur sohalar bo'yicha o'quv, uslubiy qo'llanmalar, darsliklar yaratish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz tili gap tarkibida final sintaksemalarni lisoniy tadqiqot metodlari yordamida tadqiq etish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tili gap qurilmasida final sintaksemalar tobe va yadro komponentlar o'rnida kelishi, ularning sintaktik xususiyatlari va uning bosqichlarini anglatuvchi fe'llar guruhlari tasniflanib, leksik-semantik xususiyatlari va pragmatik munosabatlariga doir natijalardan "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" nomli fundamental ilmiy loyiha doirasida foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 27-avgustdagi 344/1-son ma'lumotnomasi). Natijada ishda aks etkan lingvistik karashlar tillarni urganishka oid nazariy yunalishlar va funktsional asosda urganishka doyr ilmiy xulosalar loyixani metodologik jixattan boyitishka xizmat kilgan;

ingliz tili gap qurilmasida final sintaksemani faollashtiruvchi leksik, grammatik va sintaktik birliklar aniqlanib, ularning qamrovi komponent modellarda, sintaktik aloqalari yunksion modellarda tasvirlanganligiga oid xulosalardan Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyiga tashrif buyuruvchilar uchun materiallar tayyorlashda foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2024-yil 23-avgustdagi 01-01/03-140-son ma'lumotnomasi). Natijada, xorijiy va mahalliy sayyohlar respublika xalqi, madaniyati, hududi haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lishi va ingliz tilida bayon qilingan axborotlar saviyasi oshirilishiga xizmat qilgan;

final sintaksemalar qatnashgan gaplarning sintaksem tahlili natijasida ularning kategorial va nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilari aniqlangan va boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlari hamda final sintaksemalarning konnotativ variantlarini aniqlanib, ularning funktsional-kommunikativ va pragmatik

xususiyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-sentyabrda efirga uzatilgan "Assalawma aleykum, Qaraqalpaqstan" ko'rsatuvining hamda 2024-yil 25-sentyabrda efirga berilgan "Kush bilimde" radioeshittirishining ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining 2024-yil 25-sentyabrdagi 05-22/422-son ma'lumotnomasi). Natijada, rasmiy va norasmiy matnlarni chet tilida yani ingliz tilida ifoda qilishda to'liq muqobillikka erishishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 7 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ishda foydalanilgan qisqartmalar izohidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 146 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish.** Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Zamonaviy tilshunoslikda holni tadqiq etish masalalari**" deb nomlanib, ingliz tilida holning ifodalanish usullarini, an'anaviy grammatikada maqsad holining o'rganilish masalalarini, maqsadni va uning voqelanish bosqichlarini ifodalovchi fw'llarning leksik ma'nolarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Shuningdek, final kategoriyani tadqiq qilishda foydalanilgan lingvistik metodlar bayon etilgan.

Tilshunoslikda sintaksis qatlamini o'rganish masalasi doim bahstlab masalalardan bo'lib kelgan. Bizning tadqiqotimizning o'rganish obyekti bo'lgan *hol* ikkinchi darajali gap bo'lagi ekan, ikkinchi darajali gap bo'laklari haqida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. Gap qurilmasini tahlil qilish jarayonida gapni tashkil etuvchi sintaktik birliklarni bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etib kelingan<sup>12</sup>. Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil qiluvchi birliklar bo'lib, ular *ega* – ma'lumot qabul qiluvchi va *kesim* – ma'lumot beruvchi bo'laklar hisoblanadi.

---

<sup>12</sup> Тожиев Ё. Ўзбек тилида гап ва гап бўлақларининг мақоми масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, № 4, 2005. – Б. 50-51.

Ikkinchi darajali bo'laklar gapning semantik mazmunini to'ldirib, aniqlab, kengaytirib keladi. An'anaviy grammatikada *to'ldiruvchi*, *aniqlovchi*, *hol* atamaları ikkinchi darajali bo'laklarni ifodalash uchun ishlatiladi. Holning ikkinchi darajali bo'lak sifatida to'ldiruvchi bilan o'xshash xususiyatlari borki, ularni ba'zan farqlash mushkul bo'ladi. Tadqiqotlar holning, ravishlar, ot, fe'ning shaxssiz shakllari, predikativ birlikka tobe valentlar yordamida ifodalanishini ko'rsatish bilan cheklandilar. O.I.Moskalskaya esa matnda fikrni bayon etishda makon va zamonning namoyon bo'lishida to'xtalsa-da, o'rin holining ifodalanishida qatnashadigan variantlar borasida aniq fikr bildirmaydi<sup>13</sup>. Bir qator tilshunoslar gap qurilmasida holning shakllanishi (o'rin, payt) kesim o'rnida kelgan fe'ning leksik-semantik variantiga bog'liq deb hisoblaydi va fe'llarning faqat ish-harakatlarini ifodalovchilarini ajratadi, ammo, holni ifodalovchi sintaktik birliklarning bir-biridan farqlovchi tomonlariga esa e'ibordan chetta qoladi<sup>14</sup>.

Ayrim tilshunoslar holni to'ldiruvchidan farqlash masalasida turlicha fikrlarni bildirganlar. Masalan: L.V.Sherba "*Я достиг Киев*", "*Я получил письмо*", "*Я приехал в Киев*" qurilmalarida hech qanaqa sintaktik farq yo'q, deb e'tirof etadi, "*Я жил в Санкт-петербурге*" gapida "*в Санкт-петербурге*" – bo'lagini to'ldiruvchi deb qarasa, "*Он живёт в своё удовольствие в Санкт-петербурге*" gapida esa "*в Санкт-петербурге*" – bo'lagini hol<sup>15</sup>, deb ta'kidlaydi. Bunday bahstlab masalaga T.V.Parmenova, S.V.Knyazev, S.P.Pojaritskaya<sup>16</sup> kabi tilshunoslar ham munosabat bildirib, L.V.Sherbaning yuqorida keltirgan mulohazalarini qo'llab-quvvatlaydilar. Ushbu holat ingliz tiliga oid tadqiqotlarda ham bahstlab masala bo'lib qolmoqda<sup>17</sup>.

A.M.Muxinning fikricha, ikkinchi darajali bo'laklarni bir-biridan farqlashda lingvistik metodlardan biri – almashtirish transformatsiyasiga tayanish yaxshi samara beradi. L.V.SHerba keltirgan "*Я жил в Санкт-петербурге*", "*в Киев*" elementlari ravishlar bilan almashtirilganda predloglar saqlanmaydi, *жил*, *приехал* fe'llari o'timsiz bo'lganligi uchun o'ziga obyekt talab qilmaydi, ular makon mazmuniga ishora qilayotgan ravishlar bilan birikadi<sup>18</sup>.

Ma'lumki, ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lgan hol tilshunoslikda turlicha ta'riflanadi. Masalan, "Ingliz tili nazariy grammatikasi" darsliklarida "...hol gap bo'lagi bo'lib, kesimga hamda aniqlovchiga yoki boshqa bo'laklarga daxldor, u odatda harakat belgisini yoki belgining belgisini ifodalaydi"<sup>19</sup> – deb ta'riflanadi.

Birinchidan, hol har doim ravish bilan ifodalanadi degan tushuncha noto'g'ri, chunki hol turli morfologik vositalar yordamida ifodalanishi mumkin. Ikkinchidan, hol har doim fe'lni aniqlaydi degan tushuncha ham noto'g'ri, chunki hol gap tarkibida

<sup>13</sup> Москальская О. И. Грамматика текста: учеб. пособие. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 109-117

<sup>14</sup> Hwang H., Kaiser E. Verb semantic variants and adverbial placement in English sentence production. *Journal of Memory and Language*, 2017. Vol. 95. P. 45–62; Князев С. В. Семантические классы глаголов и формирование адвербиалов времени и места в синтаксисе. – Санкт-Петербург: Наука, 2020. – С. 152.

<sup>15</sup> Летучий А. Б. Переходность. – Санкт-Петербург: Нестор-История, 2016. – С. 214; Шерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – Москва: Учпедгиз, 1957. – С. 142.

<sup>16</sup> Парменова Т. В. Практическая функциональная грамматика русского языка. – Verlag Otto Sagner, 2019. – С. 203; Князев С. В., Пожарицкая С. П. Современный русский литературный язык: Фонетика. – Москва: Академия, 2017. – С. 152.

<sup>17</sup> Partee V.H. *Semantics for Generative Grammar*. – Oxford: Blackwell, 1998. – P. 214-216.

<sup>18</sup> Мухин А.М. Лингвистический анализ. Теоретические и методологические проблемы. Л., 1976. – 170 с.

<sup>19</sup> Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоретический курс грамматики. – Москва: Изд. лит. на иностр. языках, 1956. – С. 291; Kruisinga E. *A Handbook of Present-Day English*. – Groningen: P. Noordhoff, 1998. – P. 157;

sifat, ravish, ot yoki fe'l kabilar yordamida ifodalangan gap bo'lagi bo'lishi mumkin<sup>20</sup>. "...o'rin holi va payt holi har xil bo'lgani bilan voqeaning sodir bo'lish makoni va zamonini tavsiflaydi"<sup>21</sup>.

V.V.Burlakova to'ldiruvchini holdan farqlashga semantik va transformatsion jihatdan kuzatib "...ularni chegaralash uchun universal qat'iy obyektiv mezonlarni topishning imkoni yo'q"<sup>22</sup>, degan xulosaga keladi. B.A.Ilishning hol va to'ldiruvchining farqli jihatlarini neytrallashda ularning sintaktik mohiyatini aniqlamasdan turib ikkinchi darajali bo'laklar deya nomlab bo'lmasligini ta'kidlaydi<sup>23</sup>.

Umuman olganda, hol hodisasiga doir bunday xilma-xil ta'riflar ushbu gap bo'lagining atroflicha tavsiflanmaganidan dalolat beradi. Morfologik vositalarning sintaktik imkoniyatlariga bag'ishlangan alohida ilmiy ishlar olib borilayotganligini nazarda tutib, hollarni aniqlashdagi boshqa nuqtai nazarlarga e'tibor qaratilganda, holning tayanch so'z tabiatiga ko'ra ajratilishi hamda uni tasniflashda me'zonlarga tayanish hamon o'z yechimini topmasdan kelayotir. Sintaktik ta'rif va tavsiflarning ko'pligi yondashuvning bir tomonlama ekanligini ko'rsatadi.

Holni aniqlashda olima A.Salkalamanidze<sup>24</sup> o'ziga xos yo'l tutib, u hol birikib kelayotgan so'zning birikuvchanligi (valentlik)ga tayanadi va holning tabiatini aniqlashda ham hokim so'z, ham tobe so'z xususiyatlarini, ularning lug'aviy ma'nolarini e'tiborga olishga harakayt qiladi.

Hol ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lib, ish-harakatning bajarilish holatinin, usulini, o'rni va paytini, sabab va maqsadini, shart va to'siqsizligini hamda miqdor-darajasini bildiradi. Shuningdek, hol biror ish-harakat holatini boshqa u yoki bu ish-harakat holatiga o'xshatish orqali anglatishi ham mumkin. Shu xususiyatlariga ko'ra hol quyidagi turlarga ajratiladi: ravish holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart holi, to'siqsizlik holi va qiyoslash holi.

Amerika va Yevropa tilshunoslarining ingliz tili sintaksisiga bag'ishlangan qo'llanmalarida hol gap bo'lagi sifatida alohida ajratilmaydi. Ular ikkinchi darajali bo'laklarning *object* va *modifiers*<sup>25</sup> turlarini farqlaydi, *modifiers* atamasi aniqlovchi va holni o'z ichiga oladi. Shuningdek, fe'l tomonidan talab qilinadigan majburiy ikkinchi darajali bo'laklarga nisbatan *complement*, majburiy bo'lmagan sintaktik birliklarga nisbatan *adjunct*<sup>26</sup> atamasi qo'llaniladi, bu to'ldiruvchi yoki hol bo'lishi mumkin. Ayrim qo'llanmalarda holning bir nechta turlari, jumladan o'rin holi, payt holi sanab

<sup>20</sup> Ilyish B.A. The Structure of Modern English. – Leningrad: Prosveshenie, 1971. – P. 233; Киклевич А.К. Экспликативный синтаксис: новые модели синтаксического анализа. – М.: ЯСК, 2016. – С. 154; Sweet H. A New English Grammar. Logical and Historical. – Oxford: Clarendon Press, 2004. – P. 163.

<sup>21</sup> Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. Halliday's Introduction to Functional Grammar. – 4th ed. – London: Routledge, 2014. – P. 214-215.

<sup>22</sup> Бурлакова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке.- Ленинград: ЛГУ, 1975. – С. 30.

<sup>23</sup> Ильиш Б. А. Строй современного английского языка. - 2-е изд. – Л.: Просвещение, 1971. – С. 234.

<sup>24</sup> Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 129 с.

<sup>25</sup> Miller Jim, An Introduction to English Syntax. Edinburgh University Press, 2002. – 206 p.; Newson M. et al. Basic English Syntax with Exercises. – Budapest: Bölcsész Konzorcium, 2006. – 477 p.

<sup>26</sup> Radford A. English Syntax. Cambridge University press, 2004. – 258 p. Wekker, Herman. A Modern Course in English Syntax. – New York: Routledge, 1996. – 202 p.

o'tilgan<sup>27</sup>, biroq ularda ham morfologiya va sintaksis aralashtirib yuborilganligining guvohi bo'lamiz.

Hol, ravish va predlogli birikma bilan ifodalangan holni bir biridan farqlash uchun *adverbial*, *adverbial phrase* va *prepositional phrase* terminlari ishlatilib, hol vazifasidagi predlogli birikma *adjunct adverbial*, deya talqin etiladi hamda holning bir nechta turlari haqida fikr bildiriladi: adjuncts express a wide range of ideas, including manner, means, purpose, reason, place, and time (including duration and frequency)<sup>28</sup>.

An'anaviy grammatika kitoblarida hol quyidagi leksik birliklar bilan ifodalanishi e'tirof etiladi:

1. Ravish bilan: *He speaks Italian fluently.*

2. Ot yoki otli birikma bilan: *Next morning they set off for London.*

3. Ergashtiruvchi bog'lovchi bilan kelgan ot, olmosh, sifat, infinitiv, sifatdosh yoki predlogli birikma bilan:

*She does it better than her sister. When crossing the street, first look at the left.*

4. Predlogli birikma bilan:

*The Captain had spread the cloth with great care (ChDDS, 598)*

5. Sifatdosh yoki sifatdoshli birikma bilan:

*Having finished the work, he hurried home.*

6. Predlogli gerundiy yoki gerundiyli konstruksiya bilan:

*He then dressed for dinner, by taking off his glazed hat and putting on his coat (ChDD, 598)*

7. Infinitiv, infinitivli birikma yoki konstruksiyalar bilan:

*She went to the bank to get some money.*

8. Absolyut konstruksiyalar bilan:

*He stopped and turned about, his eyes brightly proud (Douglas).*

Ushbu tasnifni biz amaliy grammatikaga oid asosiy darslik va qo'llanmalarda uchratamiz<sup>29</sup>. Keyingi yillarda nashr qilingan aksariyat o'quv adabiyotlarida holning turlari va ifodalanishida aniqlik kam kuzatiladi, aksincha morfologiya sintaksis bilan aralashtirib talqin etiladi. Xususan, morfologik kategoriya sifatida predlog o'rganilganda, u ot bilan birikib makon mazmunini ifoda etishi e'tirof etiladi.

Holning ravish bilan ifodalanishi eng ko'p uchraydi va shuning uchun asosiy o'rin egallaydi, chunki holning gap bo'lagi sifatidagi sintaktik vazifasi ravish so'z turkumining kategorial belgilariga juda o'xshab ketadi. Bundan kelib chiqib holni ravishning prototip kategoriyasi deyish mumkin. Vaholanki, ravishni hol sifatida anglash boshqa so'z turkumlariga nisbatan ancha osonroq va tezroq amalga oshadi hamda u sintaktik pozitsiya, ravish semantikasi, unga bog'langan boshqa unsurlar semantikasi kabi boshqa omillarga kamroq bog'liq bo'ladi.

<sup>27</sup> Robert D. Van Valin Jr. An Introduction to Syntax. Cambridge University Press, The State University of New York. 2001. – 235 p.

<sup>28</sup> Noel Burton-Roberts. Analyzing Sentences. Pearson Education Limited. 2011. – P. 87-88; Abdullah Oleh. English Syntax. Badan Penerbit UNM, 2023. – 100 p.

<sup>29</sup> Kaushanskaya, Carter R., McCarty M. Cambridge Grammar of English. Cambridge university press, 2006. – 985 p.; Dooley J., Evans V. Grammarway 4. Express publishing, 1999. – 276 p.; Качалова К.Н., Израилевич Е.Е. Практическая грамматика английского языка. – Киев: Методика, 2003. – 363 с.

Ravish bilan ifodalangan hol turli semantik tiplarni birlashtiradi, jumladan, o'rin holi, payt holi, ravish holi, daraja va miqdor holi. Masalan, *outside, inside (o'rin holi), early, them (payt holi), quickly, fast, suddenly (ravish holi), slightly, very, less, extremely (daraja-miqdor holi)* kabi ravishlarni keltirishimiz mumkin.

Maqsad ma'nosi alohida tadqiqot obyekti sifatida bir qator ilmiy ishlar obyekti bo'lgan bo'lsa-da, maqsad holining o'rganilishida ayrim bahstalab masalalar mavjud. Maqsad holi dunyodagi barcha tillarga xos bo'lib, muayyan bir til tizimida<sup>30</sup> yoki qiyosiy-tipologik<sup>31</sup> jihatdan o'rganilgan. Ayrim tadqiqotlarda maqsad holi yoki umuman, hol kategoriyasi gap qurilmasining kengaytiruvchisi sifatida o'rganilgan<sup>32</sup>.

Zamonaviy ingliz tili grammatika kitoblarida maqsad holi terminini uchratish qiyin, aksincha holning barcha turlari *adverbial* atamasi bilan yuritilib, maqsad holi *wh-adverbial*<sup>33</sup> turiga kiritilib talqin qilinadi.

I.A.Kuzmicheva ingliz tilida infinitivning xususiyatlarini tadqiq etishda maqsad holiga alohida yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: "Maqsad holi vazifasidagi infinitiv uchun quyidagi xususiyatlar majmui aniqlangan: bisituativlik ("vosita" – predikatning ish-harakati + "maqsad" – infinitivning ish-harakati), predikat harakati bilan infinitiv harakatining kauzal shartliliigi, propozitsiyaning ijodiy turi, infinitiv harakatining boshqarilishi, infinitiv harakatining nafaolliigi (amalga oshirilgan maqsadlardan tashqari), "bir vaqtning o'zida"gi taksis munosabatlari (amalga oshirilgan maqsad uchun), subyektning antroponimiyasi, subyektning faolligi"<sup>34</sup>.

Maqsad insoniyat hayotida muhim o'rin tutuvchi faoliyat bo'lib, uni amalga oshirish jarayoni bir necha faoliyatlar bosqichidan iborat bo'ladi. Maqsad bu faoliyat ekan, uni ifodalashda asosan fe'l turkumidagi so'zlardan foydaniladi. Maqsadni va uning ro'yobga chiqish bosqichlarini anglatuvchi fe'llarni tuzilishi va ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratamiz. Tuzilishiga ko'ra maqsad fe'llarining bir tarkibli, ikki tarkibli, uch tarkibli kabi guruhlari farqlanadi.

Maqsadni ifodalovchi fe'llarning o'ziga xosligi shundaki, ularning mazmuni uning atrofidagi leksik birliklar ma'nosiga bog'liq bo'ladi, ya'ni uning distributsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakat yoki holat fe'llarini tahlil qilish asosiy vazifamiz sanaladi. Maqsadni amalga oshirish istagi, niyati, uni amalga oshirish uchun ko'rilgan tayyorgarlik va urinish jarayonlarini ham ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Maqsad fe'llarining distributsiyasini ixtiyoriy va majburiy birliklar tashkil etadi. Majburiy qurshov quyidagi modelga ega bo'ladi: *N/Prn + Vint/ + to*

<sup>30</sup> Уразова Е.Ю. Инфинитив в функции второстепенных членов предложения в русском языке: На фоне данных польского языка: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2003.- 25 с. Гагиев И.И. Синтаксис простого предложения в абазинском языке: Автореф. дисс ... док. филол. наук - Москва, 2000.- 26 с. Ниссен Ф.Х. Семантико-синтаксический анализ интенциональных конструкций (на материале английских текстов экономической тематики): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук - Самара, 2000. - 26 с

<sup>31</sup> Arkhipova I.V. Taxis and finality: issues of intercategory communication. *Humanitarian studies. History and Philology*. 2021; 4:68-74. (In Russ.). <https://doi.org/10.24412/2713-0231-2021-4-68-74>.

<sup>32</sup> Шутов А.Ф.. Пути развития гипотактических отношений в удмуртском языке: Автореф. дисс ... док. филол. наук. – Ижевск. 2002. – с.; Исмаилова А.М. Способы выражения второстепенных членов предложения в рутульском языке: Дис. ... канд. филол. наук. - Махачкала, 2005 - 145 с.

<sup>33</sup> Jong-Bok Kim, Peter Sells. *English Syntax: An Introduction*. Kyung Hee University, Seoul, 2008. – 302 p.

<sup>34</sup> Кузьмичева И.А. Механизмы экспликации обстоятельственных функций английского инфинитива. Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Архангельск, 1999. – 27 с.

*Infinitive/Gerund*, bunda ot yoki olmosh jonli shaxs bo'lib infinitiv yoki gerundi tomonidan ifodalangan harakatning potensial bajaruvchisi hisoblanadi.

*The men contemplated finding the treasure awhile in blissful silence (MTTS, 182).*

Maqsadni ifodalovchi fe'llar yolg'iz qo'llanganda talab qilingan mazmuni to'liq ifodalay olmaydi, ulaning qamrovida doim gap strukturasi funksional to'ldirib turadigan birliklar, ya'ni harakatni amalga oshirish istagini, niyatini, maqsadini, harakatini kabilarni ko'rsatib turuvchi leksik birliklar bo'lishi talab etiladi. Agar qamrov talablari buzilsa, kerakli maqsad mazmuniga erishilmaydi. Biroq maqsadni ifodalovchi fe'llar ellipsisga uchrashi mumkin, bunda uni tiklash orqali final sema ochib beriladi.

Maqsadga erishish bosqichlariga qarab fe'llar guruhlarga ajratiladi. Shulardan harakatning amalga oshirish niyatini ifodalovchi fe'llarni tahlil qilishga kirishamiz. Bunda biz Sh.Balli, Z.D.Popova va I.V.Xoroshunovalarning<sup>35</sup> fikrlariga tayanamiz. Maqsad va unga olib borish bosqichlarini ifodalovchi fe'llarni hamda ularning kichik guruhlarni Y.V.Zayukova<sup>36</sup> o'zining tadqiqotida sxemalashtirgan.

Mazkur ishimizda ingliz tilida maqsad kategoriyasini ifodalovchi elementli gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishda ularning sintaktik aloqalarini aniqlab, komponentlarning differentsial sintaktik belgilarini hamda ularning gapdagi sintaktik o'rnini belgilash sintagmatik yo'nalishda qarama-qarshi qo'yish yoki kontrast usuli orqali amalga oshiriladi. Gap tarkibidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, avvalambor, kategorial differentsial sintaktik- emantik belgilar aniqlanib, ular asosida ushbu birliklarning gap tarkibida tutgan o'rniga qarab nokategorial belgilari ochib beriladi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, boshqa gap tarkibidagi bir xil o'rinda kelgan sintaktik birliklarning funksional maqomi ham qiyoslanadi.

Ikkinchi bob **“Ingliz tilida maqsad holi qatnashgan gaplarning komponent tahlili”** deb nomlanadi va u gap semantik strukturasi maqsadning ifodalanishi, maqsad holi qatnashgan gaplarni yunksion va komponent modellar asosida tadqiq qilishga bag'ishlanadi. Bunda yunksion modellar vositasida final sintaksemalarning sintaktik aloqalari ko'rgazmali ravishda namoyon etiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi maqsad holini rus tiliga tarjima qilish usullariga ham to'xtalamiz.

Shaxsning harakati gap strukturasi muayyan til birliklari vositasida ifoda etiladi. Shuni ta'kidlash joizki, gap subyekt va predikati semantik birliklar hisoblanadi, shunday ekan, gap qurilmasida final semani aniqlashda nafaqat harakatga balki, shaxsga va harakat obyektiga e'tibor qaratish talab etiladi.

Mazkur tadqiqotimizda biz asosiy e'tiborni maqsadni voqelantirishning funksional sintaktik-semantik xususiyatlarini ochib berishga qaratamiz<sup>37</sup>.

<sup>35</sup> Балли Ш. Язык и жизнь. - М., 2003. - 230 с., Попова З.Д., Хорошунова И.В. Построение лексико-семантического поля ключевого слова концепта // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы международного симпозиума. - В 2 частях. - Волгоград: Перемена, 2003. - 4.2. - С. 34-35

<sup>36</sup> Заюкова Е.В. Семантика и прагматика интенциональности в языковой актуализации (на материале английского языка). Дисс. ... канд. Филол. наук – Барнаул, 2005. – С. 47.

<sup>37</sup> Храковский В.С. Проблемы деривационной синтаксической теории: Автореф. дисс. докт. филол. наук - Тбилиси. 1972. - 40 с.; Чейф У.Л. Значение и структура языка. - М.:Прогресс 1975. - С. 56; Арват Н. Н. Компонентный анализ семантической структуры простого предложения. - Черновцы: Изд. гос. университета, 1976. - 68 с.; Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения: Автореф.

N.Yu.Shvedova va X.H.Arvtlar<sup>38</sup> maqsadni aniqlashda gapning semantik tuzilishi va komponentlar semantikasi tushunchalarini ishlab chiqishgan.

Ushbu tadqiqotimizda maqsadni ifodalovchi sintaktik vositalar sifatida maqsad holi vazifasidagi bog'lovchili va bog'lovchisiz infinitiv guruhlar hamda predlogli birikmalarni izohlaymiz. Shuningdek, maqsad holi vazifasidan boshqa o'rinlarda keluvchu leksik-grammatik vositalar ham maqsadni voqelantirishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Ingliz tilida maqsadni infinitiv yordamida ifodalashda asosiy ishlatiladigan bog'lovchi vosita *in order* birligi hisoblanadi. Avvalroq ta'kidlanganidek, maqsad avvalo harakatni tavsiflaydi, shunday ekan tadqiqot jarayonida to'plangan materiallar orasida asosiy ulushni harakat predikati tashkil etadi.

1. *Isaak hurried out to meet Mako (PAPT, 99).*

Keltirilgan gap tarkibida jarayonni ifodalaydigan fe'l (*hurried out*) asosiy predikat bo'lib, harakat va obyekt (*to meet Mako*) maqsadni faollashtirgan. Bunda *Isaak* jarayonning va harakatning subyekt bo'lib kelmoqda. Bir gap tarkibida birdan ziyod maqsad holi bo'lishi mumkin.

2. *This evening I must fetch the letter and then go to the station... to have one more look at the timetable, to make sure (RJ, 248).*

Keltirilgan ikkinchi gap tarkibida maqsad semantikasi uyushib kelgan. Bunda birinchi maqsad ikkinchi maqsadga nisbatan sabab ma'nosini anglatadi. Gapda asosiy uyushiq predikat modal fe'lli birikmalar bilan ifodalangan, modal fe'l birinchi asosiy fe'ldan oldin joylashgan va u ikkinchi harakatga ham tegishli hisoblanadi. Final semantika *have a look* qo'shma fe'l bilan ifodalangan, bunda *one more* birikmasi harakatning takrorlanayotganidan dalolat beradi. Final sintaksemaning har ikkalasi ham *go to the station* harakatining maqsadini voqelantiradi. Shuning uchun *go to the station* birikmasini kontaminatsiyalangan komponent deyishimiz mumkin.

Mazkur faslda biz maqsadni ifodalovchi birliklarning nafaqat sintaktik aloqalari va morfologik xususiyatlarini ochib beramiz, balki aniqlangan sintaktik aloqalar sonidan kelib chiqib tadqiq etilayotgan sintaktik birliklarning sintaktik valentligiga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz. R.M.Asadov ta'kidlanganidek, sintaktik sathda komponentlarning valentligini aniqlashda gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarning sintaktik aloqalari soni hisobga olinadi. Ushbu fikrga asoslanib, sintaktik birliklar bir sintaktik aloqa asosida gap tarkibida ishtirok etsa, bir valentli yoki monovalentli, ikki sintaktik aloqaga ega bo'lsa – ikki valentli, uch sintaktik aloqali – uch valentli komponent<sup>39</sup> deyiladi. Badiiy adabiyotlardan yig'ilgan misollarga asoslanib aytish mumkinki, maqsadni ifodalovchi komponentlar gap qurilmasida turli sintaktik o'rinlarda keladi.

---

докт. филол. наук. - Л., 1974-32 с.; Гак В.Г. Проблемы лексико-грамматической организации предложения: Автореф. докт. филол. наук - М., 1968. - 56 с.; Danes Fr. Some Thoughts on the semantic structure of the sentence// *Lingua*. Amsterdam. - 1968. - V. 21. - P. 55.

<sup>38</sup> Шведова Н.Ю. Место семантики в описательной грамматике. Синтаксис // Грамматическое описание славянских языков. Концепции и методы. - М., 1974. С. 105 - 121. Арват Н.Н. Компонентный анализ семантической структуры простого предложения. - Черновцы: Изд. гос. университета, 1976. – С. 26.

<sup>39</sup> Асадов Р.М. Инглиз тили содда гап қурилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили / Фил.фан бўйича фал.док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент: 2018. – 27 б.

Uyushiq noyadroviy tobe (HÑD) komponent o'rnida predlogli otli birikma *predlog + S + S* shaklida ifodalanadi. Masalan:

3. ... *the gang would come to Fatty's for his famous sausage and mash* (PAPT, 14).

Ushbu gapda final sintaksema uyushiq bo'laklar bilan ifodalangan bo'lib *for + S+S* strukturasi vositasida voqelanmoqda. Bunda final sintaksema *to come* o'timsiz fe'li bilan ifodalangan yadro predikativ 2 pozitsiyasidagi tayanch komponentga subordinativ aloqa asosida boglangan. An'anaviy grammatika kitoblarida *for* predlogi bilan kelgan ot turkumiga oid so'zlar odatda predlogli to'ldiruvchi deb hisoblanadi. Biroq mazkur gap tarkibidagi predlogli birikma final sintaksema ekanligini transformatsiya metodi yordamida aniqlashimiz mumkin, ya'ni *for the purpose of eating* birikmasini gap tarkibiga qo'shish orqali mazmunga aniqlik kiritiladi:

3) ... *the gang would come to Fatty's for his famous sausage and mash* → ... *the gang would come to Fatty's for the purpose of eating his famous sausage and mash* → (1) ... *the gang would come ... for ... sausage and mash*.

Gap tarkibidagi komponentlarning morfologik xususiyatlarini komponent modelda (keyingi joida K.M.) aks ettiramiz, sintaktik aloqalarini aniqlash uchun yunksion modeldan (keyingi joida Yu.M.) foydalanamiz:

(3)... <i>the gang would come ... for ... sausage and mash</i>				
$\frac{NP_1}{S}$	$\cdot \frac{NP_2}{mVinf}$	$\cdot \frac{H\tilde{N}D}{prS}$	$\cdot \frac{H\tilde{N}D}{S}$	K.M.
				Yu.M.

Gapning yunksion modelida ko'rinadiki, uyushiq final sintaksema (*for sausage and mash*) ikki sintaktik aloqaga kirishmoqda, ya'ni *for sausage* va *mash* elementlari o'zaro koordinativ aloqa bilan bog'langan va ular birgalikda *would come* sintaktik birlik bilan subordinativ aloqaga kirishgan. Demak, *for ... sausage and mash* komponentlari ikki valentli sintaktik birliklar hisoblanadi.

Gap tarkibidagi *sausage and mash* sintaktik birliklar implitsit tarzda obyekt sintaksemani ham ifodalaydi, bu hol yuqorida keltirilgan transformatsiya hosilasida o'z aksini topadi, ya'ni qo'shimcha qilingan *eating* o'timli fe'lning obyekt bo'lib xizmat qiladi:

(3)... *the gang would come to Fatty's for his famous sausage and mash* → ... *the gang would come to Fatty's for the purpose of eating his famous sausage and mash* → ... *the gang would come and eat ... sausage and mash*.

Noyadroviy predikativ 2 –  $\tilde{N}P_2$  komponent o'rnida bog'lama fe'l va sifat (cA) turkumidagi so'z vositasida maqsad ma'nosi voqelanishi mumkin:

4. *He wanted them to be different* (PAPT, 54).

Ushbu gap tarkibida *to be different* birikmasida final sintaksema mavjud bo'lib, u *want* fe'li ta'siri ostida yuzaga chiqadi. Bu holatni almashtirish transformatsiyasidan foydalanib aniqlashimiz mumkin:

4) *He wanted them to be different* → *His purpose was their being different*.

Final sintaksema noyadroviy predikativ 2 komponent ( $\tilde{NP}_2$ ) o'rnida kelib, noyadroviy predikativ aloqa asosida noyadroviy tobe predikativ 1 ( $\tilde{NDP}_1$ ) bilan bog'lanmoqda. Gap tarkibidagi *them* ( $\tilde{NDP}_1$ ) va *to be different* ( $\tilde{NP}_2$ ) birikmalari o'rtasida predikativ aloqa mavjudligini gapga aylantirish transformatsiyasi yordamida aniqlaymiz:

(4) *He wanted them to be different* → ... *them to be different* → ... *they are different*.

Gap tarkibidagi komponentlarning morfologik xususiyatlari va ular o'rtasidagi sintaktik aloqalarini komponent va yunksion modellarda quyidagicha ifodalaymiz:

(4) <i>He wanted them to be different</i>							
$\underline{NP}_1$	$\cdot$	$\underline{NP}_2$	$\cdot$	$\tilde{NDP}_1$	$\cdot$	$\tilde{NP}_2$	K.M.
Pnp		Vf		Pnp		cA	
							Yu.M.

Ushbu gapda final sintaksema bir valentli sintaktik birlik hisoblanadi, chunki u faqat bir sintaktik aloqa asosida gap qurilmasida voqelanmoqda. Morfologik xususiyatiga ko'ra u sifat turkumidagi so'zning obyekt kelishidagi kishilik olmoshiga bog'lama fe'l bilan bog'lanishi orqali namoyon bo'ladi.

Noyadroviy tobe predikativ 2 –  $\tilde{NDP}_2$  (VinfA) komponent o'rnida final sintaksema *infinitiv* + *sifat* orqali ifodalanib kelishi kuzatiladi:

5. *He looked back to make sure* (PAPT, 52)

Mazkur gap qurilmasida final sintaksema infinitiv va sifat (*to make sure*) birikmasi yordamida ifodalangan bo'lib, u noyadroviy tobe predikativ 2 komponenti o'rnida ikki sintaktik aloqa asosida voqelanmoqda: 1) yadro predikativ 2 (*looked*) komponentiga tobe bo'lib, u bilan subordinativ aloqa; 2) yadro predikativ 1 (*He*) komponenti bilan predikativ munosabatga kirishib, noyadroviy predikativ aloqa asosida bog'langan. Gaping komponent va yunksion modellari quyidagicha bo'ladi:

5) <i>He looked back to make sure</i>							
$\underline{NP}_1$	$\cdot$	$\underline{NP}_2$	$\cdot$	$\tilde{ND}$	$\cdot$	$\tilde{NDP}_2$	K.M.
Pnp		Vf		Adv		VinfA	
							Yu.M.

Ushbu gapda agentiv sintaksema *He* va final sintaksema *make sure* o'rtasida predikativ munosabat borligini gapga aylantirish transformatsiyasi usulidan foydalanib isbotlaymiz:

5) *He looked back to make sure* → *He ... to make sure* → *He makes sure*.

Final sintaksemaning *looked* – protsessual aksional kausal sintakseмага tobe munosabatini savol qo'yish usuli yordamida aniqlashimiz mumkin:

(5) *He looked back to make sure* → *Why did he look back?*

Yuqoridagi misollar tahlilida aytilganidek, bu gapda ham *to make sure* komponenti final semaga ekaligini *in order* yoki *for the purpose of* birikmalarini qo'shimcha qilish orqali isbotlashimiz mumkin:

(5) *He looked back to make sure* → *He looked back in order to make sure* yoki *He looked back for the purpose of making sure.*

Maqsadni ma'nosi implitsit tarzda ham ifodalanishi mumkin:

6. *She tried to stop him from coming near the fire* (PAPT, 30).

Ushbu gapda final sintaksema implitsit tarzda ifodalangan bo'lib, uni transformatsiya usulidan foydalanib aniqlashga harakat qilamiz. Bunda maqsad ma'nosi bir so'z bilan emas, balki bir nechta birikma vositasida ifodalangan. Berilgan gapni *Her aim is to stop him coming near the fire* shakliga aylantirish agentiv sintaksemaning maqsadini ochib bermaydi. Maqsadni aniqlash uchun mazkur gap semantikasiga pragmatik yondashuv talab qilinadi va u quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

6) *She tried to stop him from coming near the fire* → *Her aim is to prevent him from getting burnt.*

Tahlil qilinayotgan gap qurilmasi beshta sintaktik birlikdan iborat bo'lib, unda yadro predikativ 2 va noyadroviy tobe komponentlar birikuvi final sintaksemani anglatishga xizmat qilgan, deya olamiz. Gapning komponent va yunksion modellarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

<i>(6) She tried to stop him from coming near the fire</i>									
$\underline{NP}_1$	$\cdot$	$\underline{NP}_2$	$\cdot$	$\tilde{NDP}_1$	$\cdot$	$\tilde{NP}_2$	$\cdot$	$\tilde{ND}$	K.M. 7
Pnp		VfVinf		Pnp		prVg		prS	
									Yu.M. 7

Bajarilgan modellardan ma'lum bo'ladiki, gap tarkibida final sintaksema noyadroviy predikativ va subordinativ aloqalar asosida voqelanmoqda. Ular gap qurilmasida yadro predikativ 2, noyadroviy tobe, noyadroviy predikativ 2 hamda noyadroviy tobe predikativ 2 komponentlar o'rnida faollashadi. Shuningdek, ajratilgan bo'lak tarkibida ham uchraydi.

Uchinchi bob "**Final sintaksemali gaplarning funksional tahlili**" deb nomlanib, unda ingliz tili gap tarkibida kategorial belgilardan substansiallik, protsessuallik va kvalifikativlik doirasida final sintaksemaning paradigmatic qatorini aniqlash, ularning o'ri va distributsiyasini belgilash hamda konnotativ variantlar hosil qilish imkoniyatlarini ochib berish nazarda tutiladi.

Ma'lumki, substansiallik shaxs yoki predmetni, nominativ xususiyatga ega bo'lgan tushunchalarni; kvalifikativlik shaxs va predmetlarning belgisini, miqdorini, hajmini, rangini, tusini, sifatini; protsessuallik harakat va holatni ifodalovchi leksik birliklar orqali voqelanishi mumkin. Bu uchala kategorial belgilar qamrovida nokategorial final sintaksemaning variantlari sintaksem tahlil asosida ochib beriladi.

Ingliz tilida substansiallik, protsessuallik va kvalifikativlik doirasidagi barcha sintaksema variantlari gap ichida, asosan, kauzativ sintaksemalardan keyin kelishi kuzatiladi:

*My parents used to move to Zomin for the summer because of their health condition.*

*I don't want to take part in this ceremony, lest someone would recognize me and be aware of my stay in the town.*

*He took some warm clothes with him in order not to get cold during his holiday in the North.*

Final sintaksema substansiallik bazasida gap oxirida *for* predlogli birikma holida keladi. Bunda u final aksional, final obyekt yoki final stativ sintaksemalarni voqelantirishi mumkin:

*We stopped by the road for a rest.*

*I have done it for my mother.*

*He always does his best to be successful.*

Protsessuallik qamrovida final sintaksemalar gap oxirida kelganda asosan o'timsiz fe'llar bilan ifodalanadi. Agar o'timli fe'llar bilan ifodalansa, final sintaksemadan keyin substansial obyekt sintaksema kelishi talab etiladi:

*I regularly go to the gym to practice.*

*She hurried into her room to get dressed.*

*... he entered the kitchen to have something to eat.*

Protsessuallik doirasida asosan passiv final sintaksemalar gap oxirida kelishi kuzatiladi, shuningdek ular gap boshida ajratilgan bo'lak vazifasida ham kelish holatlari uchraydi:

*I have just sent my article to be edited.*

*We are going to hang the poster higher to be clearly seen.*

Kvalifikativ doirasida final sintaksemalar gap oxirida kelishi asosan stativ final va kvalitatif final sintaksemalar bilan kuzatiladi, bunda mazkur birliklar bog'lama fe'l va sifat yoki o'tgan zamon sifatdoshi bilan ifodalanadi:

*She enjoyed lying on the white sands of the beach to be suntanned.*

*He decided to get financial knowledge to be rich.*

Final sintaksemalar gap boshida kelishi maqsad holiga mantiqiy urg'u berilganda yoki ajratilgan bo'lak vazifasida kelgan holatlarda kuzatiladi. Bu o'rinda asosan final sintaksemalar kvalifikativlik va protsessuallik bazasida faollashadi:

*To keep fit and strong, you should always work out in the gym.*

Ingliz tilidagi final sintaksemalar gap qurilmasida ajratilgan bo'laklar, kesim, maqsad holi, to'ldiruvchi, aniqlovchi, maqsad ergash gap va payt ergash gap vazifalarida reallashadi va distributsiyada uchraydi.

Final sintaksemani aniqlashda bitta sintaktik birlikni hisobga olish kifoya qilmaydi, sababi maqsad aynan bir harakatning umumiy bajarilishi emas balki, aniq qanday yoki kimga yoki nimaga nisbatan bajarilishi kabilar hisobga olinishi talab etiladi. Quyidagi gaplarni sintaksem tahlil qilish orqali final sintaksema variantlarini va boshqa sintaksemalar bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

1. *... he turned to face the crowd (RJ, 220).*

2. *Eva closed her eyes, to absorb pictures of strange places and people (RJ, 214).*

Mazkur gaplar tarkibida maqsadni voqelantiruvchi sintaktik birliklar asosi fe'l turkumidan bo'lganligi uchun kategorial belgilardan protsessuallik doirasida nokategorial belgilarni aniqlaymiz. Infinitiv shaklidagi fe'l maqsadni anglatayotganini *in order, so as* birliklarini qo'shimcha qilish orqali dalillaymiz:

1) *... he turned to face the crowd → ... he turned in order to face the crowd*

2) *Eva closed her eyes, to absorb pictures of strange places and people* → *Eva closed her eyes, so as to absorb pictures of strange places and people.*

Tahlil qilinayotgan gaplarda NP1P1 o'rnidagi *he* (1), *Eva* (2) substansial ikki karra agentiv (*SbAgAg*) sintaksemani ifodalab, NP2 o'rnidagi *turned* (1), *closed* (2) – protsessual aksional (*PrAc*) sintaksemlar bilan yadro predikativ aloqa asosida bog'langan, ÑDP2 o'rnidagi sintaktik birliklar protsessual aksional final (*PrAcFn*) – *to face* (1) va protsessual stativ – *to absorb* (2) sintaksemlarni ifodalaydi va NP1P1 komponent bilan noyadroviy predikativ, NP2 komponent bilan subordinativ aloqaga kirishadi. Gaping noyadroviy tobe komponentlari substansiallik doirasida obyekt lokativ allativ (*SbObLcAl*) – *the crowd* (1) va obyekt – *pictures* (2) sintaksemlarni ifodalaydi va ÑDP2 komponentga tobelanib keladi. Shuningdek, ikkinchi gapda ÑD komponentlar o'rnida substansiallik doirasida possessiv (*her, of places and people*) va obyekt (*eyes*) sintaksemlar hamda kvalifikativlik doirasida kvalitatif (*strange*) sintaksemlar ham mavjud.

Yuqorida tahlil qilingan gaplarning sintaksem modeli quyidagicha tasvirlanadi:

(1) ... *he turned to face the crowd*: *SbAgAg . PrAcCs . PrAcFn . SbLcOb*;

(2) *Eva closed her eyes, to absorb pictures of strange places and people*: *SbAgAg . PrAcCs .SbPs . SbOb . PrStFn . SbOb . QlfQlt . SbLcPs . SbPs*.

Final sintaksema, aksariyat hollarda, qo'shma gaplar tarkibida uchraydi, shuningdek, boshqa bir harakat yoki holatga imkoniyat yaratish (*Psb* – inglizcha imkoniyat ma'nosini beruvchi *possibility* so'zidan olingan) semasini ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu holatni quyidagi gaplar tarkibida ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

3. *Although he left the door ajar to let in more light, there was still very little of it* (*RJ, 126*).

4. *He put it back into the tin bath to let it soak up in a little more water and so soften ...* (*RJ, 128*)

Tahlil qilinayotgan (3) gap tarkibidagi *to let in more light* birikmasi muayyan holatni o'zgartirish, mavjud vaziyatga ko'proq imkon berish maqsadi ma'nosini ifodalaydi va u protsessuallik doirasida namoyon bo'ladi. Odatdagidek, maqsadning amalga oshishiga sabab bo'luvchi birlik protsessual aksional (*left*) sintaksema bo'lib ergash gapping kesimi vazifasida kelgan. Maqsadning reallashuvida vosita bo'luvchi instrumental sintaksema *the door* elementida aks etgan. Ushbu gapda *ajar* unsuri holat kategoriyasi bo'lib, u tarz sintaksemani (*Mn* – inglizcha *manner* so'zidan olingan) voqelantiradi. Mana shu masalada tilshunoslar o'rtasida bahsli fikrlar mavjud<sup>40</sup>: ko'pchilik olimlar holat kategoriyasini alohida gap bo'lagi bo'la olmaydi, ular bog'lama fe'llar bilan birikib ot-kesim vazifasini bajaradi<sup>41</sup>, degan fikrni olg'a suradilar. Bizning nazarimizda ushbu *ajar* komponent *left* harakatining holatini anglatmoqda. Gap tarkibidagi keyingi komponent *light* substansial agentiv sintaksema

<sup>40</sup> Carter R, McCarthy M. Cambridge grammar of English. – Cambridge university press, 2006. – P. 447. [https://studopedia.com.ua/1\\_254038\\_THE-WORDS-OF-THE-CATEGORY-OF-STATE.html#google\\_vignette](https://studopedia.com.ua/1_254038_THE-WORDS-OF-THE-CATEGORY-OF-STATE.html#google_vignette); Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1981. – С. 37.

<sup>41</sup> Ильиш Б. А. Строй современного английского языка. - 2-е изд. – Л.: Просвещение. Ленингр. отд-ние, 1971. – С. 56.

hisoblanadi, *more* esa kvalifikativlik doirasida kvantitativ additive sintaksemani aks ettiradi. Shunday qilib mazkur gapning sintaksema modeli quyidagicha:

3) ... *he left the door ajar to let in more light...*: *SbAg . PrAcCs . SbObIns . QlfMn . PrAcFn . QlfQunAdd . SbAg*;

Navbatdagi (4) gap tarkibida birinchi final sintaksema (*let*) inkon yaratish semantik variantiga ega bo'lsa, ikkinchi final sintaksemalar uyushib kelgan (*soak up and soften*) va protsessual bazasida stativlikni anglatgan. Yuqorida tahlil qilingan gaplardan farqli ravishda ushbu (3,4) gaplarda ega vazifasidagi sintaktik birlik ikki karra agentivlikni anglatmayapti, chunki keyingi harakatlar ega vazifasidagi shaxs (*he*) tomonidan emas, balki tobe bo'lak, ya'ni to'ldiruvchi vazifasidagi birliklar (*door, light, it*) tomonidan amlga oshmoqda.

Sabab va payt ergash gaplarda ham maqsad ma'nosi implitsit tarzda ifodalangan bo'lishi mumkinligini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

5. *He shouted the last words, because he wanted them to reach the secretary's ears (RJ, 163).*

6. *You'd better hop it before one of them catches sight of you (RJ, 169).*

Ushbu gaplarda maqsadni aniqlash uchun transformatsiya metodidan foydalanamiz:

5) *He shouted the last words, because he wanted them to reach the secretary's ears.* → *He shouted the last words so that they would reach the secretary's ears;*

6) *You'd better hop it before one of them catches sight of you* → *You'd better hop it in order that no one would catch sight of you.*

Beshinchi gap bo'lishli shaklda, oltinchi gap inkor shaklda transformatsiya qilingan. Inkor shakl olishiga sabab *before* bog'lovchisi hisoblanadi. Final sintaksema *would reach* nutq fe'li bilan voqelangan protsessual aksional sintaksemaga bog'langan va o'ziga substansial partitiv (*ear*) sintaksemani tobelantirgan. Bundan tashqari sabab ergash gap tarkibida ham *to reach* final sintaksema bo'lib, protsessual stativ (*want*) fe'liga bog'lanib kelgan.

Oltinchi gapdagi *would catch sight* birikmasi protsessual aksional final negativ sintaksemani ifodalaydi, bosh gapdagi protsessual aksional preferansiv<sup>42</sup> (*'d better hop*) sintaksemaga bog'lanadi. O'z navbatida unga obyekt sintaksema (*of you*) tobe bog'lanib keladi.

Gaplar quyidagi sintaksema modelga ega bo'ladi:

(5) *He shouted the last words, because he wanted them to reach the secretary's ears*: *SbAg . PrAcCs . QlfOr . SbOb . SbSt . PrStFn . SbObAg . PrAcFn . SbPs . SbPrt*;

(6) *You'd better hop it before one of them catches sight of you*: *SbAg . PrAcPrf . SbOb . SbCl . SbTl . PrAcFnNg . SbOb*.

Tadqiqot jarayonida to'plangan misollar tahlili asosida shuni ayta olamizki, uyushiq kesim o'rnida kelgan final sintaksema substansial yoki kvalifikativ kategorial belgilardan bo'la olmaydi, u faqat protsessual bazasida aksionallikni ifodalay olishi mumkin. Fikrimizni quyidagi gap tahlili bilan dalillashga harakat qilamiz:

7. *He opened the door and pushed Dodo out (RJ, 173).*

---

<sup>42</sup> Inglizcha *preference* so'zidan olingan bo'lib, afzal bilish, tavsiya qilish semalarini anglatadi.

Mazkur gap tarkibida ikkinchi uyushiq NP2 komponenti maqsadni voqelantirishini transformatsiya metodi yordamida quyidagicha aniqlaymiz:

7) *He opened the door and pushed Dodo out.* → *He opened the door to push Dodo out.* → *He opened the door in order to push Dodo out.*

Gap tarkibidagi NP1 o'rnidagi sintaktik birlik *He* substansiallik bazasida ikki karra agentivlikni, NP2 o'rnidagi *opened* – protsessuallik qamrovida aksional kauzal, *pushed* – aksional final direktiv sintaksemalarni voqelantiradi. Tobe komponent *Dodo* – substansial ob'yekt, *out* – substansiallik doirasida lokativ allativ sintaksemalarni ifodalaydi. Gapning sintaksem modelini quyidagicha tasvirlaymiz:

(7) *He opened the door and pushed Dodo out: SbAgAg . PrAcCs . PrAcFnDr . SbOb . SbLcAl.*

Bitta gapda bir nechta final sintaksema bo'lishi va biri o'zidan keyingisiga nisbatan sabab bo'luvchi harakatni ifodalashi ham mumkin. Buyruq gaplar tarkibida maqsad ifodalanishi ko'p kuzatiladi, sababi so'zlovchi o'zining maqsadiga erishish uchun kimnidir nimadir qilishga undaydi.

Ingliz tilida ifodalangan substansial, protsessual va kvalifikativ final sintaksema variantlarini aniqlashda eksperiment metodining turli usullaridan, ya'ni o'rin almashtirish, qo'shimcha qilish, savol qo'yish kabi transformatsiyalardan foydalanish mumkin.

## XULOSA

1. Ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lgan hol tilshunoslikda turlicha ta'riflanadi. Ayrim darsliklarda hol gap bo'lagi sifatida kesimga hamda aniqlovchiga yoki boshqa bo'laklarga daxldorligi va harakat belgisini yoki belgining belgisini ifodalashi ta'kidlansa, boshqa bir tilshunoslar tomonidan "adverbial modifiar" atamasi holning xususiyatlarini aks ettirishga unchalik mos emasligi da'vo qilinadi.

2. "Adverbial" deganda ikki xil tushuncha mavjud, lekin ikkalasi ham ko'zlangan maqsadni ko'rsatmaydi. Birinchidan, hol har doim ravish bilan ifodalanadi, degan tushuncha noto'g'ri, chunki hol turli morfologik vositalar yordamida ifodalanishi mumkin. Ikkinchidan, hol har doim fe'lni aniqlaydi degan tushuncha ham noto'g'ri, chunki hol gap tarkibida sifat, ravish, ot yoki fe'l kabilar yordamida ifodalangan gap bo'lagi bo'lishi mumkin. Umuman olganda, hol hodisasiga doir xilma-xil ta'riflar mavjudligi ushbu gap bo'lagining atroflicha tavsiflanmaganidan dalolat beradi.

3. Hol ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lib, ish-harakatning bajarilish holatini, usulini, o'rni va paytini, sabab va maqsadini, shart va to'siqsizligini hamda miqdor-darajasini bildiradi. Shuningdek, hol biror ish-harakat holatini boshqa u yoki bu ish-harakat holatiga o'xshatish orqali anglatishi ham mumkin. Shu xususiyatlariga ko'ra hol quyidagi turlarga ajratiladi: ravish holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart holi, to'siqsizlik holi va qiyoslash holi.

4. Hol quyidagi sakkiz xil usulda voqelanishi o'rganildi: 1) alohida ravish bilan; 2) hokim so'z ravish bo'lgan so'z birikmasi bilan; 3) predlogli ot, olmosh, son bilan yoki predlogli otli birikma bilan; 4) predlogsiz alohida ot yoki otli birikma bilan; 5) fe'lning shazssiz shakllari bilan; 6) fe'lning shaxssiz shakllari qatnashgan oborotlar

yoki qurilmalar bilan; 7) bog'lovchi vositasida faollashuvchi ot, sifat, ravish, predlogli birikma, sifatdosh, infinitiv, infinitivli yoki sifatdoshli oborotlar bilan; 8) qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplar bilan.

5. Maqsad holi vazifasidagi unsur uchun quyidagi xususiyatlar majmui aniqlangan: bisituativlik ("vosita" + "maqsad"), predikat harakati bilan infinitiv harakatining kauzal shartliliigi, propozitsiyaning ijodiy turi, infinitiv harakatining boshqarilishi, infinitiv harakatining nofaolligi (amalga oshirilgan maqsadlardan tashqari), "bir vaqtning o'zida"gi taksis munosabatlari (amalga oshirilgan maqsad uchun), subyektning antroponimiyasi, subyektning faolligi.

6. Maqsadni ro'yobga chiqarish bosqichlarini faollashtiruvchi fe'llar bir nechta guruhlariga bo'linadi: 1) tuzilishiga ko'ra bir tarkibli, ikki tarkibli, uch tarkibli; 2) leksik ma'nolariga ko'ra intensional va nointensional fe'llar, maqsadni amalga oshirish istagi, niyati, uni amalga oshirish uchun ko'rilgan tayyorgarlik va urinish jarayonlarini anglatuvchi fe'llar. Shuningdek, maqsad fe'llari muvaffaqiyatga erishish vositalaridan biri sifatida muvaffaqiyat chetki guruhiga kiritish mumkin.

7. Final (maqsad) sintaksemalar gap qurilmasidagi o'rni va distributsiyasiga ko'ra gapning boshida, o'rtasida va oxirida kelish holatlarini kuzatdik. Final sintaksema gap boshida kelganda ajratilgan bo'lak tarkibida protsessuallik bazasida uchraydi. Gap o'rtasida o'timli fe'l bilan ifodalangan protsessual final sintaksemalar, substansial final va kvalifikativ final sintaksemalar kuzatildi. Gap oxirida asosan, substansial final sintaksemalar kelishini aniqlandi.

8. Final sintaksemalar distributsiyasi haqida xulosa qiladigan bo'lsak, ular asosan obyekt va aksional sintaksemalar qurshovida bo'ladi. Shuningdek, tarz, atributiv, kauzativ sintaksemalar bilan ham bog'lanadi; darak, so'roq, buyruq gaplar, parallel konstruksiyalar, ritorik so'roq gaplar tarkibida qurshovda kelishi aniqlandi.

9. Ingliz tili sintaktik sathda final sintaksemalar qatnashgan gaplarni sintaksem tahlil qilish orqali aniqlandiki, maqsadni ifodalovchi sintaktik birliklar asosan protsessuallik va substansiallik doirasida voqelanadi, protsessual final sintaksemalar NP2 o'rnidagi protsessual aksional, protsessual aksional kauzal, protsessual stativ hamda NP1 o'rnidagi substansial agentiv, substansial stativlik yuklatilgan, substansial stativlik yuklatilgan obyekt sintaksemalarga bog'lanadi; substansial final sintaksemalar NP1 komponentlarga bog'lanmaydi, ular NP2 o'rnidagi protsessual aksional kauzal va protsessual stativ kauzal sintaksemalarga bog'lanadi.

10. Protsessuallik qamrovidagi final sintaksemalar o'zlariga substansiallik doirasidagi obyekt, instrumental, partitiv, lokativ sintaksemalarni tobelantiradi. Substansial final sintaksemalar boshqa sintaksemalarni tobelantirish holati kuzatilmadi. Kvalifikativlik doirasida final sintaksemalarning stativ va kvalitatif final variantlari aniqlandi.

Umuman olganda mazkur tadqiqotda final sintaksemalarning ifodalanishi, leksik va sintaktik aloqalari, pragmatik xususiyatlari, komponent tahlili va sintaksemalari paradigmikasi tadqiq etildi va o'n oltita sintaksemalar variant aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ЕШИМБЕТОВА ГУЛЬЗАДА ДАВЛЕТОВНА**

**КАТЕГОРИЯ ФИНАЛЬНОСТИ И ЕЕ ПРАГМАТИЧЕСКИЕ  
ОСОБЕННОСТИ В СТРУКТУРЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО  
ЯЗЫКА**

**10.00.04 – Язык и литература народов Европы, Америки и Австралии**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.2.PhD/Fil2608.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

**Усманов Урал Усманович**

кандидат филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

**Кдырбаева Гулзира Курбанбаевна**

доктор филологических наук, профессор

**Асадов Рустам Мунинович**

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

**Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится “21” May 2026 года в “9” часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. (Адрес: 230112, г.Нукус, улица Ч.Абдилова, дом №1. Телефон: (99861) 223-59-25; факс: (99861) 223-59-25; электронная почта: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована за № 516). Адрес: 230112, г.Нукус, улица Ч.Абдилова, дом №1. Тел.: (99861) 223-59-25; факс: (99861) 223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан “30” april 2026 года.

Протокол реестра рассылки за № 23 от “30” april 2026 года.



**М. Кудайбергенов**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**Ж. Сейтжанов**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, профессор

**Г. Курбаниязов**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Прагматически ориентированные исследования в мировой лингвистике показали, что язык выражает понятия в сознании говорящего во внеязыковых ситуациях. В каждом языке определённое понятие выражается различными способами и средствами. При интерпретации категориальных знаков онтологические принципы раскрывают существование семантических категорий в процессе реальной речевой деятельности на основе лингвистических теорий. Любая человеческая деятельность имеет определённую цель, и изучается процесс реализации её этапов. Категория финальности была объектом ряда исследований в лингвистике. В нашем исследовании, в отличие от проведённых ранее исследований, проводится синтаксемный анализ элементов, выражающих цель, и раскрываются их прагматические свойства.

В мировой лингвистике способы реализации категории финальности изучены недостаточно. В специальных исследованиях анализировались только индивидуальные средства выражения цели в частности, в рамках интенциональности с психологической точки зрения, в сравнительном аспекте. В целом, в проведённых исследованиях категория финальности в основном изучалась во взаимосвязи с категорией намерения. Категория цели является объектом изучения не только лингвистики, но и ряда социальных наук, таких как философия и психология. Следовательно, необходимость изучения данной категории с семантико-прагматической точки зрения свидетельствует об актуальности темы данной диссертации.

В последние годы в нашей стране особое внимание уделяется изучению иностранных языков и проведению научных исследований по системе иностранных языков. Кроме того, на основе новых подходов широко исследуются структура языка, активизация языка в речи, синтаксические, семантические, прагматические и коммуникативные свойства языка. Таким образом, проведена эффективная работа по вопросам описания выражения языковых единиц на синтаксическом уровне методом синтаксемного анализа, определению синтаксических отношений на основе синтаксической валентности, выявлению категориальных и некатегориальных признаков синтаксических категорий. Обогащение фундаментальных исследований новыми направлениями в соответствии с требованиями времени и развитие международного научного сотрудничества, подчёркнутые в Указе «О стратегии «Узбекистан – 2030», где в качестве приоритетных задач обозначены «поддержка молодых исследователей в области фундаментальных исследований по сравнительному изучению языков, расширение инновационной деятельности, её модернизация и коммерциализация научных результатов»<sup>1</sup>, также обуславливают необходимость обогащения современной лингвистики инновационными принципами и критериями.

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии «Узбекистан– 2030» // <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № УП-60 от 18 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», № ПП-4884 от 11 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», № ПП-4963 от 25 января 2021 года «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в республике узбекистан», а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** В мировой лингвистике категория финальности находится в центре внимания лингвистов. В этой связи европейские ученые исследовали цель на основе философского и прагматического подходов: идеи выражены в трудах J.L.Austin, M.Dummett, G.Frege, J.R.Searle, D.Vanderveken, F.G.Droste<sup>2</sup> и во многих учебниках<sup>3</sup>. Прагматические, функционально-семантические особенности исследуемой категории выражены в работах таких русских лингвистов, как А.В.Бондарко, Э.Гуссерля, И.П.Сусова, А.А.Леонтьева, П.Ф.Строссона, Н.Н.Казыдуб, И.Б.Левонтиной, Сон Мен Гона, Л.И.Смуровой<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 168 p.; Dummett M. Frege: Philosophy of Language. – Cambridge: Harvard University Press, 1981. – 708 p; Searle J.R. 1968. Austin on Locutionary and Illocutionary Acts // Philosophical Review. – Vol. 77. – No. 4. – P. 405-424; Searle, J.R. et Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 431 p.; Katz J.J. Propositional Structure and Illocutionary Force: A Study of the Contribution of Sentence Meaning to Speech Acts. – Hassocks, Sussex: Harvester, 1977. – 249 p.; Droste F.G. Intention, Meaning, Interpretation // Lingua. – Amsterdam. – 1968. – Vol. 21. – P. 126-134.

<sup>3</sup> Intentionality. – Cambridge: Cambridge University Press. 1983. – 278 p.

